

TA'LIM JARAYONIDA UMUMMADANIY KOMPETENTLIKNI O'RNI**Kuchkarov Bahodir Tashmurodovich**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: kompetentlik, madaniyat, talim, jarayon, harbiy, tizim.

Annotatsiya

maqola harbiy pedagogning o'z pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishining muhim omillaridan biri sanalgan bo'lajak xarbiy menejerlarda umummadaniy kompetentlikni o'rmini yoritishga bag'ishlangan. Maqolada ta'lif jarayonida umummadaniy kompetentlik tushunchalarining mazmuni asoslab berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Globallashayotgan jamiyatning jadal rivoji bugungi kunda harbiy ta'lif tizimida tayyorlanayotgan malakali kadrlar korpusining raqobotbardoshligini ta'minlash zaruratini ham talab qilmoqda. Bunday sharoitda bo'lajak harbiy xizmatchilar uchun berilayotgan, ta'lif mazmuni, o'quv jarayonining jahon andozalari darajasida tashkil etilishi globallashayotgan dunyo, innovatsion asosda rivojlanayotgan milliy iqtisodiyot, ijtimoiy tizim talablariga mos kelmog'i lozim. Shuning uchun ham harbiy ta'lif tizimida malakali kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlarini joriy etish bo'lajak harbiy xizmatchilarni kasbiy malakasini shakllantirish, shuningdek, ularni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish bugungi harbiy ta'lif tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yildagi yangi tahrirdagi ta'lif to'g'risidagi qonuni va 2022-2026 yillarga mo'ljallangan – yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lif-tarbiyani tubdan isloh qilish yuzasidan yo'nalişlar belgilab berilgan bo'lib, ularda ta'lif-tarbiyani eskirib qolgan mafkuraviy qarashlardan xalos etish, uzluksiz ta'lif-tarbiya tizimini muammolarini hal etish, amaldagi ta'lif-tarbiya tizimini milliy mintalitetimizga mos holda rivojlantirishdan iboratdir. Bugungi kunda harbiy oliy ta'lif muassasalari oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda nafaqat kursantlar faoliyati mazmuni, shakllari va uslublarini o'zgartirish balki professor-o'qituvchilar faoliyatini ham, qaytadan ko'rib chiqishni taqozzo etmoqda.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lif sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Umummadaniy kompetentlik - bu insonning madaniyat makonida harakat qila bilish qobiliyati. U milliy va umuminsoniy madaniyatni, oilaviy, ijtimoiy hodisalar va an'analarning ma'naviy-axloqiy asoslarini o'z ichiga oladi.

Umummadaniy kompetensiyalar- bu ko'plab kasbiy bo'lмаган va kasbiy faoliyatning ko'p turlariga xos bo'lган muammolarni hal qilishda amaliy tajriba, bilim va ko'nikmalarga asoslangan holda muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi.

Umumiyl madaniy kompetensiyalar umumiyl fan kursi mavzulari va professional modullarning mazmunini o'zlashtirish davomida rivojlanadi. Umumiyl madaniy kompetensiyalar o'zida ijtimoiy-shaxsiy xususiyatlar jamlanmasini ifodalab, bu xususiyatlar jamlanmasini egallaganlik insonning universal xarakterga ega bo'lган kasbiy va kasbiy bo'lмаган vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatini anglatadi.

Umummadaniy kompetentlik tarkibiga shaxsga madaniy namunalarni o'zlashtirish va yangilarini yaratishga imkon beruvchi faoliyatning umumlashgan usullari kiradi. Shu bilan bog'liqlikda ushbu kompetentlik tarkibida o'z ichiga bilish faoliyatini qamrab oluvchi ma'lumot olish-bilish faoliyati, ijtimoiy funksiyalarni bajarish ko'nikmasini o'z ichiga oluvchi ijtimoiy muvofiqlashtirish faoliyati, ma'lumot almashinish va birgalikda faoliyat usullarini tashkil etish usullarini qamrab oluvchi kommunikativ faoliyat kabi qismlar ajratib ko'rsatiladi.

Umummadaniy kompetentlikni biz umuminsoniy madaniyat va milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini, ma'naviy-axloqiy munosabatlar asoslarini va ijtimoiy hodisalar, an'analarni bilish, ularni ijtimoiy munosabatlar tizimida amaliy qo'llay olish, olamning ilmiy manazarasi haqida tasavvurlar borligida va madaniy makonni o'zlashtirish sohasida faoliyat tajribasi mavjudligida aks etuvchi ta'lim natijasi sifatida tasavvur qilamiz.

Oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantlarining kasbiy faoliyati – mashaqqatli va sharafli kasb sanaladi. Innovatsion rivojlanish jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan davrda bu kasb insonni doimiy izlanishda bo'lishga, rivojlanishga, kasbiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy jihatdan takomillashuvga undaydi. Bunday talab bo'lajak ofitserlarning umummadaniy kompetentligini oshirada muhim o'rin egallaydi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun ziar bo'lган bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'naliш bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

- Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

- Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, kursantlar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobjiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, kursantlar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobjiy ta’sir ko‘rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Harbiy pedagog, birinchi o‘rinda, yuqori professional darajasiga yetgan, ya’ni, ham harbiy mutaxassis sifatida, ham pedagog sifatida o‘z kasbining ustasi bo‘lishi kerak. Shunday ekan, undan har ikkala soha mutaxassislariga xos bo‘lgan kasbiy sifatlar, bilimlar, ko‘nikma va malakalar, qadriyatlар kompleksi mujassam bo‘lishi lozim.

Mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, yuksaltirish bo‘yicha belgilangan dolzarb masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri xalqning ma’naviy, ma’rifiy va madaniy saviyasini o‘stirish hisoblanadi. Chunki xalqning, jamiyatning har bir a’zosining ma’naviy, ma’rifiy va madaniy saviyasi qancha yuqori bo‘lsa, kadrlar salohiyati shuncha baland bo‘ladi, xalqning turmush darajasi oshadi. Shunday ekan, xalqimizning, jamiyatimizning madaniy, ma’naviy-axloqiy saviyasini o‘stirishga alohida e’tibor qaratish muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. /O‘zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig‘ilishdagi nutqi./ Vatanparvar, 2023. 10 yanvar.
2. Psixologik-pedagogik atamalar izohli lug‘ati. – T.: O‘R Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019 y. –116 b.
3. Satib-Aldiev A. Ofitserning pedagogik madaniyati. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent OUQBYu, 2013. – 38 b.
4. Satib-Aldiev A. Harbiy pedagogning kasbiy kompetentligi. //Harbiy ta’lim va fanda innovatsiyalar jurnali. 2018 y, 2-son. –3-8-betlar.

5. Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004. – 496 bet.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003, 5-jild. – 704 bet.
7. www.pedagog.uz
8. www.tdpu.uz
9. www.Ziyonet.uz